

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI RAHBARLARIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA BOSHQARUV LIDERLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

*Xorazm viloyati Xiva tuman 5-son Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti Direktor o'rinbosari
Matgapurova Muhayyo Otamurotovna*

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, innovatsion yondashuvlar hamda ta'lim samaradorligini oshirish omillari tahlil etiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining pedagogik mahoratini oshirish, boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish va liderlik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik vositalarning ushbu jarayondagi o'rni asoslab berilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются реформы, инновационные подходы и факторы повышения эффективности дошкольного образования. Освещаются теоретические и практические аспекты развития педагогического мастерства, управленческих компетенций и лидерских навыков руководителей дошкольных образовательных организаций.

Abstract. This article analyzes reforms, innovative approaches, and factors for improving the efficiency of preschool education. It also highlights theoretical and practical aspects of developing pedagogical skills, managerial competencies, and leadership abilities of preschool education leaders. The role of digital technologies in this process is substantiated.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, pedagogik mahorat, liderlik, boshqaruv kompetensiyasi, innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, pedagogik texnika, ta'lim samaradorligi.


Ключевые слова: дошкольное образование, педагогическое мастерство, лидерство, управленческая компетентность, инновационные подходы, цифровые технологии, педагогическая техника, эффективность образования.

Key words: preschool education, pedagogical mastery, leadership, managerial competence, innovative approaches, digital technologies, pedagogical technique, educational efficiency

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim bosqichi bo'lib, undagi sifat ko'rsatkichlari bevosita rahbar kadrlarning kasbiy kompetensiyasiga bog'liq. Zamonaviy ta'lim tizimida rahbar nafaqat tashkilot boshqaruvchisi, balki pedagogik jarayonning faol ishtirokchisi, motivator va lider sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois,

maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining pedagogik mahoratini oshirish va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari an'anaviy boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi shaxs emas, balki pedagogik jarayonni chuqur anglyadigan, innovatsiyalarni joriy eta oladigan, jamoani yagona maqsad sari birlashtira oladigan lider sifatida namoyon bo'lishi zarur. Rahbarning pedagogik mahorati va liderlik ko'nikmalari ta'lim-tarbiya jarayonining sifat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki aynan rahbar pedagoglar faoliyatini yo'naltiradi, ularning kasbiy rivojlanishiga sharoit yaratadi hamda ta'lim jarayoniga zamonaviy metod va texnologiyalarni tatbiq etadi. Maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, jumladan, ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, pedagog kadrlar malakasini oshirish kabi jarayonlar rahbarlardan yangi turdagi kompetensiyalarni talab etmoqda. Xususan, strategik fikrlash, innovatsion boshqaruv, kommunikativlik, emotsional intellekt va raqamli savodxonlik kabi ko'nikmalar bugungi rahbar faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida rahbarning liderlik salohiyati pedagogik jamoaning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Lider rahbar jamoada ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi, pedagoglarni yangilikka intilish ruhida tarbiyalaydi hamda ularning ijodiy va kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Natijada ta'lim sifati oshadi, bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlari yaxshilanadi.



Zamonaviy ta'lim tizimida liderlik — bu muvaffaqiyatli boshqaruvning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Rahbar yoshi. Boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning rahbar yoshiga bog'liqligi rivojlangan mamlakatlar tadqiqotlariga asoslanadi. Aniqlanishicha,

Yaponiya qayta ishlab chiqarish rahbarlarining oʻrtacha yoshi 63,5 boʻlsa, shu toifa amerikalik rahbarlarning yoshi 59 da ekan. Yaponiya yirik kompaniya rahbarlarini oʻrganishda uchraydigan va taajjublanarli jihatlardan biri, ularning yoshi ulugʻligidir. Shunga koʻra axborotlashtirish yoki axborotli malakaning asosiy maqsadi egallanadigan ixtisoslik shaxsiy intellektual faoliyat mazmunida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish yordamida taʼlim samaradorligini oshirish, oʻqitish jarayonini toʻliq axborotlashtirish imkoniyatlariga ega boʻlish va shu asosda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijalarini oʻquv-tarbiya jarayoniga keng tadbqiq etishni nazarda tutadi. Individual taʼlim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun bu usuli bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan.

Pedagogik mahorat rahbar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, taʼlim - tarbiya jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchilarning oʻzaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining maʼnaviy-maʼrifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvori va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini oʻrgatadi va oʻz kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi toʻgʻrisida maʼlumotlar beradi. Pedagogik mahorat rahbarning pedagogik faoliyati zahirida takomillashib boradi. Oʻqituvchi mahorati uning faoliyatida koʻrinadi. Oʻqituvchi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan boʻlishi lozim. Shu maʼnoda pedagogning umumlashgan malakalari va uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik boʻladi. Biroq mahorat - bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada Usta boʻlishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Yosh rahbar boshqaradigan tashkilotdagi xodimlarning oʻrtacha yosh koʻrsatkichi koʻpincha past boʻladi. Yoshlik (30–35 yosh atrofida) bu yangilik va kashfiyotlarga moyillik, moslashuvchanlik bilan ifodalanadi. Afsuski, bunday tashkilotda katta yoshdagi (40–45 dan yuqori) aniqlanishicha, inson 35–55 yoshlarida oʻz kasbining mohir ustasiga aylanadi, oʻz sohasidagi bilimni yaxshi egallaydi va ixtirolarni joriy etishga oʻzida ishtiyoq sezadi. Shu bilan birga, unda vaziyatni sovuqqonlik bilan tahlil etish, vazminlik kayfiyati shakllanadi.

Maktabgacha taʼlim tizimida liderlik koʻnikmasi — bu rahbar yoki pedagogning jamoani maqsad sari yoʻnaltirish, samarali boshqarish, motivatsiya berish va taʼlim jarayonini rivojlantirishga qaratilgan kasbiy va shaxsiy qobiliyatlari majmuasidir. Liderlik nafaqat rahbarlarga, balki har bir pedagogga ham xos boʻlishi zarur boʻlgan muhim kompetensiyadir. Chunki pedagog ham bolalar jamoasini boshqaradi, ularni rivojlantiradi va tarbiyalaydi.



Pedagogik texnika - rahbarning nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari - bu avvalo, pedagogning mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalar hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'u sini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir. Yurtimiz jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan bu davrda, uning gullab-yashnashi, rivojlanishi, farovonligi uchun o'z kasbining mohir mutaxassisi bo'lmish, yosh kadrlarimizning o'rni muhim ahamiyatga egadir. Shunday ekan, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim orasidagi ko'prikn mustahkamroq qilib qurishimiz, ta'limning sifat samaradorligiga innovatsion yo'llar orqali erishishimiz lozim. Buning uchun pedagoglardan juda katta mas'uliyat talab etiladi.

Ma'lumki, o'quv mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan pedagogik va informatsion texnologiyalar bir necha turlarga bo'linib, ulardan eng muhimi — kompyuter texnikasi vositalari yordamida ta'lim berishdir. SHundan kelib chiqib, elektron mashg'ulotlar, mashg'ulot ishlanmalari va elektron o'yinlar orqali ham ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Hozirgi kunda sinovdan o'tgan maxsus axborot vositalari: kompyuter texnikalari, audio va video vositalari qatoriga kelib qo'shilgan elektron ta'lim resurslari, virtual stendlar, animatsiyali dasturlar vositasida dars mashg'ulotlarini olib borish talabalar tomonidan dars mashg'ulotlarini o'zlashtirishlariga samarali natijalar berib borishi tayindir. Maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlarning pedagogik mahoratini oshirish va boshqaruv liderlik

ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim sifatini ta'minlashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim muhitida rahbar faqat ma'muriy boshqaruvchi emas, balki pedagogik jarayonni chuqur anglaydigan, innovatsiyalarni joriy eta oladigan va jamoani yagona maqsad sari yo'naltira oladigan strategik lider sifatida faoliyat yuritishi lozim. Rahbarning pedagogik kompetensiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi shunchalik ortadi. Ayniqsa, pedagogik texnika, nutq madaniyati, psixologik yondashuv va kommunikativlik kabi jihatlar rahbar faoliyatida muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, liderlik ko'nikmalari – jamoani boshqarish, motivatsiya berish, muammolarni hal etish va qaror qabul qilish qobiliyatlari – ta'lim tashkilotining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, innovatsion pedagogik usullardan foydalanish va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yo'lga qo'yish rahbarlar faoliyatining ustuvor yo'nalishlariga aylanishi zarur. Ayniqsa, rahbarlarning o'z ustida ishlashi, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etilishi hamda xalqaro tajribalarni o'rganishi ularning kasbiy salohiyatini yanada oshiradi.

- Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:
 - Rahbarlar uchun muntazam malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini takomillashtirish;
 - Raqamli pedagogika va boshqaruv bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish;
 - Innovatsion boshqaruv tajribalarini ommalashtirish va metodik qo'llanmalar yaratish;
 - Pedagogik jamoada mentorlik va ko'chma tajriba almashish tizimini yo'lga qo'yish;
 - Rahbarlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.

Xulosa shuki: maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlarning pedagogik mahorati va boshqaruv liderlik ko'nikmalari ta'lim sifatini belgilovchi strategik omil hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim muhitida rahbarning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, u nafaqat boshqaruvni amalga oshiradi, balki pedagogik jarayonni takomillashtirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda jamoani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Pedagogik mahorat va liderlik kompetensiyalarining o'zaro uyg'unligi rahbar faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi. Ayniqsa, rahbarning pedagogik bilimga ega bo'lishi uning boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslangan holda qabul qilishiga, pedagogik jamoa faoliyatini to'g'ri yo'naltirishiga hamda ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, liderlik ko'nikmalari orqali

rahbar jamoada ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi, pedagoglarning kasbiy faolligini oshiradi va ularni innovatsion faoliyatga jalb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. V.Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi T:2018.1-81-b;
2. F.Qodirova, SH.Toshpo‘latova, M.A‘zamova. "Maktabgacha pedagogika".- T., "Ma'naviyat".3.Sh.
3. A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika" . "Tafakkur sarchashmalari" T.:2013
4. N.M.Qayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.:2013
5. Usmonov M. Interaktiv elektron o‘quv kurslar — o‘qitish faoliyatining yangi vositasi sifatida. // "Xalq ta'limi" jurnali, 2013, 5-son.